



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

УДК:711.4

## ESKI SHAHAR MAHALLALARINING BUGUNGI XOLATI

**Islamova Dilnoza G‘ayratovna**  
*katta o‘qituvchi*

**Tugalov Abrorbek Dilmurod o‘g‘li**  
*arxitektura fakulteti talabasi*  
*Samarqand davlat arxitektura-qurilish*  
*niversiteti,*  
*Samarqand, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada eski shahar mahallalarining turizm rivojidagi o‘rni hamda eski shahar mahallasining mazmun-mohiyati haqida fikr yuritilgan. Uning o‘ziga xos tomonlari va mavjud muammolari ochib berilgan. Shuningdek, Esqi shahar mahallasining turizm rivojidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mahalla, eski shahar, turizm, ijtimoiy hayot, uy-joylar qurilishi, transport va piyodalar tizimi, landscape.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль кварталов старого города в развитии туризма и сущность квартала старого города. Выявляются ее специфические аспекты и существующие проблемы. Также показана роль района Старого города в развитии туризма.

**Ключевые слова:** Махалла, старый город, туризм, общественная жизнь, жилищное строительство, транспортно-пешеходная система, ландшафт.

Registon maydoni Samarqandning markazi hisoblangan. U yerda bozor mavjud bo‘lgan. XV asrda Mirzo Ulug‘bek bu yerda madrasa, xonaqoh, karvonsaroy qurdirgan. Ammo vaqt o‘tishi bilan karvonsaroy hamda xonaqoh nurab qolgan. XVII asrga kelib Samarqand hokimi Yalanto‘sh Bahodir Ulug‘bek madrasasi ro‘parasida, xonaqoh o‘rnida katta madrasa qurdirgan. Peshtoqidagi sher tasviri tushirilgan bezaklari uchun xalq orasida Sherdor nomi bilan mashhur. Maydonning g‘arbiy qismida Mirzoyi karvonsaroyi o‘rnida Yalangto‘sh Bahodirning ikkinchi madrasasi bor.



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

Samarqandning mazkur yodgorliklarining barchasi davlat tomonidan muhofaza qilinadi va YUNESKOning moddiy-madaniy me’rosi ro‘yxatiga kiritilgan. Tarixiy shahar rivojining eng muhim sharti zamonaviy jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy talablarini qondirishdir. Aynan shuning uchun ham shahar mavjud, uning mohiyati ham aynan mana shunda. Ijtimoiy qarashlar almashinuvi jarayonida zamonaviy mavjud sharoitlar va tarixiy shakl o’rtasida shaharsozlik organizmi timsolida (uning rejaviy yechimi, zonalashuvi, muhandislik ta’minoti, me’morchiligi bilan) ziddiyatlar vujudga keladi. Ko’p asrlar davomida bu ziddiyatlar o’z-o’zidan, shaharsozlik tizimining rivojlanish yo’li bilan hal etilgan, buning ustiga tizimlar o’zgarishida atrof muhit, tabiiy landshaft, rejaviy yechim, yetakchi shaharsozlik tugunlari, muhim me’moriy inshootlar kabi qadim davrlarning mustahkam elementlari saqlanib qolgan. Albatta, bu elementlarning saqlanishi ularning yangi vazifalarga moslashuvi tufayli ham ta’minlangan [3].

Xarob va fayzi yo’q joyda yashayotgan aholining kayfiyati ham, kelajakka intilishi ham bulmaydi. Ikkinci tomondan, ular ham fuqarolarimiz, nimauchun ular sharoit yo’q joyda yashashi kerak? Biz qishloqlarni obod qilsak, u yerdagi halqning kayfiyati o’zgaradi, ularda o’z hayatini yanada yaxshilashga intilish paydo bo’ladi, qishloqlar iqtisodiy o’sadi. Buning natijasida Vatanimiz obod bo’ladi va mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishi uchun yana bir muhim turtki bo’ladi [ 1 ].

Aholi punktlarini rejalashtirish va qurishda ilmiy tarixiy yoki me’moriy-badiiy ahamiyatga ega va davlat muhofazasidagi madaniyat yodgorliklarini hisobga olish kerak. Yodgorlik va madaniyat yodgorliklari guruhlari atrofida madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish tashkilotlari bilan kelishilgan holda muhofaza zonasasi va qurilishlarni tartibga solish zonasini nazarda tutish zarur. Muhofaza zonasasi chegaralarida madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish tashkilotlari ruxsatsiz yangi bino va inshootlar qurishga ruxsat etilmaydi. Yangi toifa, ya’ni “qurilishlarni tartibga solish zonasasi”ning paydo bo’lishi, ya’ni me’moriy meros muhofazasi chegaralari va



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

vazifalarining kengayishi, yetakchi inshootning muhit bilan aloqasi ta'minlanishini, hozircha faqat bevosita yodgorlik atrofi chegaralarida tarixiy yuzaga kelgan munosabatlarning ta'minlanishini belgilaydi.[2]



1-rasm. Samarqand sxemasi XIX asr.

(M.Abramov Guzarы Samarkanda Toshkent Uzbekistan 1989 g)

Alovida yondoshuvning bu talabi hozirgi vaqtida tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashning o'ziga xos talablari va uslubiy asoslarini ilmiy ishlab chiqishni tezlashtirdi. Qator halqaro, respublika kengashlari va konferentsiyalar o'tkazildi, me'mor-ta'mirshunos mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha maxsus kafedralar yaratish bo'yicha, shuningdek O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi (Buxoro, Samarqand, Qarshi va boshqalar) qator yodgorlik va majmualarni saqlash hamda qayta tiklash bo'yicha kompleks loyihalar ishlab chiqish takliflari ilgari surildi.

Ammo ko'pgina tarixiy shaharlarda hanuzgacha ko'p xato va noto'g'ri shaharsozlik yechimlariga yo'l qo'yilmoqda. Hamma yerda va har doim ham shahar rivojining izchillik qonuni va shahar tuzilishida tarixiy-me'moriy boyliklarini saqlash zarurati shahar quruvchilarining qonuniy talabi deb qabul qilinmayotir. "Yangining eski bilan kurashi" haqidagi yolg'on tasavvurlar tufayli va ba'zi yetakchi ustata'mirshunoslari ijodida yaqqol ko'rindigan shaharsozlik merosini baholash



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

sohasidagi yetarli ma'lumotga ega bo'lmaslik sababli loyihachi-amaliyotchilar tomonidan yodgorlik ta'miri va bezagining yangilanishida buzilishlarga, shuningdek kompozitsion aloqa va tarixan shakllangan majmua asoslarining buzilishiga, shahrlar siluetining qashshoqlanishiga, noyob yodgorliklarni fizik saqlangan holda yetakchilik rolining pasayishiga olib keladi.

Buning uchun muvofiq tavsiya va qonun chiqarish ishlarida mujassamlanadigan bizning nazariy fikrlarimizning yalpi shaharsozlik amaliyoti bilan maksimal yaqinlashuvi bugungi kunda birinchi darajali vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifani hal qilishda mutaxassis ta'mirshunos-me'morlarni tayyorlash bo'yicha me'moriy ma'lumot muhim rol o'ynaydi.

Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash sharoitlarida bu muammolarning hammasi qoladi, ammo yana bir tarixiy shahar uchun yetakchi bo'lgan vazifani - shahar tarixiy-badiiy fazilatlarini maksimal saqlashni ilgari surish tufayli katta qiyinchiliklar tug'diradi. Hozirgi kunga kelib shaharsozligimiz mahalla tuzilishi nuqtai-nazaridan ko'plab o'zgarishlarga uchramoqda. Eski shahar mahallalarining ko'p qismi qandaydir sabablar bahonasida buzib tashlangan va bu jarayon, afsuski, davom etmoqda. Yangidan barpo etilayotgan mahallalar esa yangi me'yoriy qoidalarga asoslanib kataksimon to'r shaklida shakllantirilmoqda. "Toshkent" ensiklopediyasida mahalla haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: «Mahalla – shahar aholisining umumiyligi istiqomat qoidalari va o'zaro birdamlik an'analari bilan bog'langan kichik qismi.

Mahallalar odatda asrlar davomida kasb-hunar yoki milliy belgilari asosida tarkib topgan. Shuning uchun ba'zi mahallalar muayyan nom bilan atalgan, masalan, Degrezlik (qozon quyuvchilar), Tojikko'cha (tojiklar yashaydigan) va boshqalar. Ko'p mahallalar shu hududdagi ariq, hovuz, ko'priq, masjid, joy rel'efi va boshqa nomlar bilan atalgan va aksincha, ularga (ko'proq masjidlarga) mahallalarning nomi berilgan. Ilgari mahallaga aholining umumiyligi yig'inida saylangan yuzboshi rahbarlik qilgan.



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

Har bir mahallaning ko'kalamzorlashtirilgan jamoat markazi, masjidi, choyxonasi, aholisining to'y-hashamga, aza-ma'rakaga zarur umumiyligi bo'lgan. Ba'zan bir necha mahalla uchun bir umumiyligi markaz – guzar bo'lib, unda masjididan tashqari hunarmandchilik ustaxonalari, choyxona, novvoyxona, baqqollik do'konlari va bozorchalar ham bo'lgan.

Ayniqsa, tarixiy shaharlarimizda biz bunday holatni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Respublikamiz shahrida ham bunday hududlar mavjud. Mahalla hududlarida hali hanuz bunday qurilmalarning mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Lekin, afsuski, suvlardan endi avvalgidek ichimlik suvi sifatida foydalanish imkoniyati yo'q. Ko'pgina ariqlar yoki hovuzlar suvsizlikdan qaqrab yotganini yeki butunlay kumib tashlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu, albatta, O'zbekiston hududida suvning borgan sari taqchil bo'lib borayotgani natijasi hisoblanadi.

Eski shahar hududi, bir tomonidan, ota-bobolarimiz ko'p asrlik an'analar asosida yaratgan shaharsozlik qurilmasi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, turistik ob'ekt hamdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda biz uni kelgusi avlodlarga boy me'moriy meros sifatida avaylab-asrab yetkazishimiz hamda ochiq osmon ostidagi muzey sifatida sayyoohlarni e'tiboriga havola qilishimiz kerak bo'ladi.



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. М. А. Talipov, О. А. To'lqunov, Н. И. Tashxujayeva “O’zbek eski shahar mahallasi muammolarining me’moriylandshaft yechimi” / Respublika ilmiy-texnik anjuman ma’ruzalari asosidagi maqolalar to’plami. Toshkent, TAQI, 2019.
2. X. Po’latov “Shaharsozlik tarixi”/ O’quv qo’llanma, Т., “Fan va texnologiya”, 2008y. 207-208b.
3. O’zbek tili izohli lug’ati: 2 tomli 60 000 so’z va iboralar/ MAHALLA, М., 1981 – 1-tom; 457-b.
4. G‘ayratovna, I. D. va Zilola, A. (2022). Samarqand viloyati viloyat markazlaridagi istirohat bog‘lari. Texas multidisipliner tadqiqotlar jurnali, 9, 68-69.
5. 4. Исламова, Д. Г., & Собирова, О. (2017). ВОССТАНОВЛЕНИЕ ДЕКОРАТИВНЫХ ДЕТАЛЕЙ И МЕТОДИКИ РЕСТАВРАЦИИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-8), 13-15.
6. Gayratovna, I. D., & Lola, K. (2022). SAMARKAND HISTORY AND ARCHITECTURE OF HISTORIC COURTYARD HOUSES.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahalla>